

EPIK TASVIRNING BADIY TALQINI

Norboyeva Gulnoza Chulli qizi

*Angor tumani alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan
ko'zi ojiz bolalar uchun ixtisoslashtirilgan
maktab "Nurli maskan" maktab internati o'qituvchisi*

Annotatsiya: maqolada xalq dostonlari matnida epik tasvirning badiiyligini oshiruvchi omillar, ularning qahramonlar ruhiy holati, xatti-harakatlarining jozibadorligini ta'minlashdagi ahamiyati Sherobod dostonchilik maktabining mashhur baxshisi Umir shoir Safarov repertuaridan yozib olingan "Alpomish" dostoni misolida tahlilga tortiladi. Dostondagi epik tasvir va an'anaviy o'rinlarning baxshi repertuarida badiiy ahamiyati va doston strukturasidagi o'рни tahlilga tortiladi.

Tayanch so'z va iboralar: epik tasvir, doston, tasviriylik, obrazlilik, o'xshatish, sifatlash, takror.

Abstract: The article analyzes the factors that enhance the artistic quality of epic imagery in the text of folk epics, their importance in ensuring the attractiveness of the characters' mental state and actions, using the example of the epic poem "Alpomish" written from the repertoire of the famous Bakhshi of the Sherabad epic school Umir poet Safarov. The artistic significance of epic imagery and traditional places in the epic in the Bakhshi repertoire and their place in the structure of the epic are analyzed.

Key words: epic imagery, epic, imagery, metaphor, adjective, repetition.

Badiiy asarda ijodkor o'ziga xos obraz yaratishda tilning badiiy-tasviriy vositalaridan o'rinli foydalanadi. Chunki ijodkor o'zi bayon qilayotgan fikrni o'quvchiga ixcham, aniq, ta'sirchan va tushunarli qilib yetkazib berishga harakat qilar ekan, albatta, badiiy-tasviriy vositalarning turli nozik qirralaridan foydalanib, hissiylik, ta'sirchan va obrazli tasvirini yaratadi. Shu asosda tinglovchining sezgisiga ta'sir qilish bilan bir qatorda matn ta'sirchanligiga ham erishadi. Ayniqsa, doston badiiyligini oshiruvchi vositalardan ramziy obrazlar, doimiy sifatlash va o'xshatishlar, mubolag'a, turg'un iboralar, doston tilida erkalovchi, kichraytiruvchi qo'shimchalarning qo'llanishi, saj' va takrorlar baxshi mahorati asosida jonli kartina yaratadi hamda tinglovchiga badiiy quvvat bag'ishlaydi. Xalq eposi namunalarida epik tasvirning ta'sirchanligi, obrazlilik, badiiyligi va ruhiy jarayonlar, qahramonlar xarakterini rang-barang ifodalashda yetakchilik qiladi. Chunki epik tasvir orqali epik kuychi doston voqealarining badiiy mukammal chiqishi, o'ziga xos ramziy vositalardan oqilona foydalanishi, obrazlar xakteri va tasvir imkoniyatlaridan maqsadli foydalana olish nuqtayi nazardan badihago'yligini ko'rsata oladi. "Maxsus badiiy tasvir vositalari asarning poetik bezagigina bo'lib qolmasdan, asar g'oyasini konkretlashtirishning

rayelistik vositasi hamdir. Asarda hayotning haqqoniy aks ettirilishi, xarakterlarning tipikligi, san'atkor talqin etgan estetik idealning muhimligi, asarning xalqchilligi, yozuvchining shakl va mazmun birligiga erishishdagi mahorati, asarning ma'rifiy va estetik-tarbiyaviy ta'sirining kuchli bo'lishi – badiiy tasviriy vositalarning mohirona ishlata bilish san'atiga ham bog'liq"[1:324]ligi masalasini xalq dostonlari, ayniqsa, qahramonlik epos namunasi hisoblangan "Alpomish" misolida kuzatish mumkin.

Ma'lumki, "Alpomish" dostonida xalq tilining jozibadorligi ko'zga tashlanib, baxshi-shoirilar ularni mahorat bilan ijro etish jarayonida foydalana boradi. Chunki doston ijro etilishida ustoz-shogird an'anasi, baxshi ijrosi muayyan badihago'ylikning epik xotira va bilim o'lchovi asosida shakllanib, mana shu uzviylik tizimida xalq tili va uning boy qatlami qahramonlar ruhiy jarayoniga uzviylasha boradi. Bunday holatlar esa birinchidan, xotirada tayyor bilimlarni takrorlash va ularni yangidan badiha qilish imkoniyatini yaratsa, ikkinchidan, xalqning kuzatuv asosida an'anaga aylangan ramziy ifodalar, tasvir elementlari epik ta'sirchanlikni oshirish orqali ma'lum tarixiy voqelikka munosabatni ifodalaydi. Uchinchidan, xalq tilining jozibasi ma'lum voqea-hodisalar uchun tasviriylikni kuchaytirishga harakat qiladi. "Alpomish" dostonida esa tilning badiiy-tasviriy vositalaridan sifatlash, o'xshatish, jonlantirish, kinoya, mubolag'a va boshqa tasvir ko'chimlarni qo'llash asosida badiiy mukammallikka erishilgan. Dostonning bugungi kunda oltmishdan ortiq variantlari turli ko'rinishlarda yozib olingan bo'lsa-da, biz Umir shoir Safarov repertuaridan yozib olingan "Alpomish"[2]da qo'llanilgan tilning badiiy-tasviriy vositalar borasida fikr yuritamiz.

Umir shoir Safarov varianti Janubiy O'zbekiston baxshilaridan yozib olingan variantlar ichida an'analarni saqlagani va badiiy mukammali hisoblanadi. "Umir Safar o'g'li varianti Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarida aytib kelinayotgan "Alpomish" dostoni xususiyatlarini o'zida saqlagan bo'lib, bu vohadan yozib olingan variantlar orasida eng mukammali hisoblanadi"[3:48]. Dostonda baxshi qahramonlar ruhiy holati, xatti-harakatini tasvirlash maqsadida o'xshatishlardan mahorat bilan foydalana boradiki, bu holat tinglovchiga ko'taringki kayfiyat berish bilan bir qatorda voqealarga munosabat ifodalash, ularning qiyoslanish orqali kuchli ekanligini ham anglatadi. Ayniqsa, dostonda Alpomishning qalmoq yurti tomon yo'l olish epizodida Boychiborning safarga ketish tasviri baxshi tomonidan juda o'rinli ifodasini topa boradi.

...Ko'zi lovullab yonar
Havoning yulduziday.
Bo'ktargi go'shtiga qarasa,
Chillaning qotgan muziday (94-bet).

Boychibor harakatda ekan, uning chopqirligi baxshi tomonidan birma bir jonli tasvirini ko'rsata boriladi. Ushbu misralarda Boychiborning chopqirligiga xos xususiyatlarni ko'rsatish asosida sodir etilib, ayniqsa, ko'zining lovullab yonishi

osmonda charoqlab turgan yulduzlarga o‘xshatilmoqda. Baxshi Boychibor ruhiyatini tinglovchiga ko‘rsatish uchun turli-tuman o‘xshatish usullaridan mahorat bilan foydalana boradiki, bu tasvirning real ko‘rinish holatini ifodalashga harakat qiladi. “Havoning yulduziday” kabi birikmani keltirish orqali Boychibor harakatidagi shiddatkorona tasvirga e‘tibor qaratadi. Chunki qorong‘u osmonni yulduz yorug‘ qilgani kabi Boychiborning shiddatli harakati yo‘lni yaqin, qahramon orzularining tez ushalishiga sabab bo‘ladi. Bu tasvirda o‘xshatilgan narsa –otning ko‘zi, o‘xshatiladigan narsa – yulduz, o‘xshatish asosi – osmon, o‘xshatish vositasi – day bo‘lib, o‘xshatishning to‘rt asosiy qismdan tashkil topganini ko‘rsatmoqda. Uchinchi va to‘rtinchi misralarda bu holat yanada kuchaytirib boriladi. Umir shoir narsa-hodisalarni shunchaki qiyoslash, o‘xshatish vositasidan foydalanib qolmasdan balki, ularning kuzatuv va an‘anaviy qoliplashgan shakliga ham e‘tibor qaratadi. “Bo‘ktargi go‘shiga qarasa, Chillaning qotgan muziday” misralarida mana shunday xususiyatlar ko‘zga tashlanadi.

E‘tibor qaratilsa, otning “bo‘ktargi go‘sh” parvarish va harakat mobaynida organizmida yig‘ilib qolgan eti bo‘lsa, u chopayotgan vaqti qattiq bo‘lib bo‘rtib chiqadi. Baxshi hayvonda ro‘y berayotgan ushbu holatni chilla vaqtida muz qotish holatiga qiyos qilmoqda. O‘zbek xalq taqvimiga ko‘ra “to‘qson” hisobi yigirma beshga to‘lgach, ya‘ni jaddaning oxirida qishning eng sovuq pallasi – chilla kiradi. Xalqimiz qish chillasini ikkita yigirma kunlik muddatga – katta va kichik chillaga bo‘lgan. “Chilla” atamasi fors-tojik tilidagi “chil” (qirq) so‘zidan olingan bo‘lib, yoz va qish fasllarining eng issiq va eng sovuq qirq kunlik muddati atamasidir. Qish fasli 90 kundan iborat bo‘lib, 20- dekabrda 30- yanvargacha bo‘lgan muddat “katta chilla” deyiladi. Bu muddat qishning eng og‘ir va sovuq kunlari deb tasavvur qilingan bo‘lib, mana shu vaqtda muzlagan narsalar ancha vaqt saqlanadi. Baxshi esa mana shu xususiyatlarni anglab, kuzatib, Boychibor harakatiga uyg‘unlashtirmoqda. Doston matnlarida o‘xshatishlarning an‘anaviy va real kuzatuvlar asosida yuzaga kelgan juda ko‘plab namunalari mahorat bilan ifoda etila boradi.

...Tuyog‘i yerga botibdi

Katta korsonning og‘ziday.

Tuyoqdan chang cho‘zilar

Cho‘llarning to‘zon-duziday.

Qulog‘ining kattaligi

Tog‘larning andiziday (94-bet) va boshqalar.

“Alpomish” dostoni faqatgina o‘xshatishlar bilan emas, balki sifatlash va takrorlarning ham o‘ziga xos badiiy ifodasidir. Sifatlashlar voqea-hodisa, predmet-narsa, kishilarning belgi xususiyatlarini aniqlash hamda tavsiflash maqsadida qo‘llanilib, tasvirlanayotgan ifodalarga qo‘shimcha mazmun yuklaydi. Epitetlarning ushbu xususiyatlari borasida L. Ozerov quyidagicha fikr yuritadi: “Epitet

san'atkorning inson qalbini, buyumlar tabiatini, u yoki bu hodisani qanday idrok etishini o'lchab beradi"[4:354]. Doston matnida sifatlashlar ko'plab o'rinlarda foydalansa-da, ko'chma ma'noda qo'llanuvchi – metaforik epitetlarga alohida o'rin beriladi. Doston matnida Alpomishning Qultoydan duo olib, qalmoq yurti tarafga safarga o'tlanish epizodi bo'lib, xayrlashuv pallasida singli Qaldirg'ochning ko'ngli buzilib, yig'lab turgan epizodida quyidagi sifatlashlardan o'rinli foydalaniladi:

Qizil gulsan, sarg'ayib ham so'lmagin,

Qaldirg'ochjon, xafa bo'lib qolmagin.

Ushbu misralarda keltirilgan "qizil" epiteti shunchaki gulning belgisini anglatib qolmasdan, balki u qadimiy asosiga ham egaligi bilan alohida ajralib turadi. Chunki tasvirda "gul" poetik ifoda sifatida Qaldirg'ochga parallel qilib olinmoqda. Gulning qizil epiteti bilan birgalikda bir butun holda tasvirlanayotganligi esa qadimiy asoslariga ko'ra osmon ma'budlariga aloqadorlikning ramziy ifodasidir. Ya'ni, quyosh qanchalik yer yuzini nuri bilan isitib tursa, Qaldirg'och ham avlodning davomchisi sifatida parallellik kasb etadi. Sarig'lik, albatta, yaxshilik alomati emas. Dostonlarda qizil sifatlashining qiz bolaga nisbatan parallel qilib, an'anaviylashgan ko'rinishi mana shu bilan aloqadorligini saqlab, uning boshqa rangda tasvirlanishi epik an'anaga zid tasvirni shakllantiradi. Demak, epitetlar doston matnlarida shunchaki qo'llanmasdan, balki an'anaviy poetik aniqlovchi vazifasini o'tab kelishi bilan ham ahamiyatlidir. Shu bilan bir qatorda hissiylik hosil qilishi, ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan ham ajralib turadi. "Alpomish" dostonida badiiy-tasviriy vositalardan hisoblangan epitetlarning go'zal namunalari keltirilganki, ular alohida izlanish va tadqiqotlarni talab etadi. Biz esa maqolamiz doirasida epik tasvirning badiiy xususiyatlarini oshirishda tilning badiiy-tasvir vositalaridan faqatgina o'xshatish va sifatlashlarni keltirish orqali birinchidan, doston voqealarining shunchaki bayon etilish emas, balki badiiy-estetik ahamiyatini oshirishdagi o'rnini ko'rsatib berish bo'lsa, ikkinchidan, ushbu tasvir vositalari an'anaviy qoliblashib, ma'lum bir xalqning dunyoqarashi va e'tiqodiy tasavvurlarini ham o'z ichiga qamrab olishiga e'tibor qaratdik.

Xulosa qilib aytganda, epik tasvirning badiiy talqini voqelikni faqatgina tasvirlash xususiyati bo'lmasdan, balki qahramon xatti-harakati, ruhiy holati, doston g'oyasi va strukturasidagi o'rnini ham ochishda muhim vosita sifatida alohida ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Darslik. –Toshkent: O'zbekiston, 2002. –B.324
2. Alpomish. Doston. Aytuvchi Umir shoir Safarov. Nashrga tayyolovchilar T.Mirzayev, J.Eshonqulov. –Toshkent: Akademnashr, 2019. Misollarni ushbu variantdan olib, sahifasini qavs ichida ko'rsatamiz.
3. Мирзаев Т. Эпос и сказитель. –Ташкент: Фан, 2008. -Стр. 48.
4. Озеров Л. Мастерство и волшебство. –М.: Наука, 1972. – С.354.